

O'ZBEK LUG'ATCHILIGINING ESKI O'ZBEK TILI DAVRI

Mirzaahmedova Hilola Ermamat qizi

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

Ózbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ozbek lug'atchiligining tarixi va uning rivojlanish bosqichlari hamda ózbek tilshinosligida yaratilgan, ilk lug'atlar hamda ularning taxlili haqida fikr yuritilgan.*

Kalit sózlar: *leksikologiya, leksikografiya, “Devoni lug'ati-t-turk”, Sangloh.*

Abstract: This article talks about the history of Uzbek lexicology and the stages of its development, as well as the first dictionaries created in Uzbek linguistics and their analysis.

Key words: *lexicology, lexicology, “Devoni Lug'ati-t-Turk”, “Sangloh”.*

СТАТЬЯ

В данной статье рассказывается об истории узбекской лексикологии и этапах ее развития, а также о первых словарях, созданных в узбекском языкознании, и их анализе.

Ключевые слова: лексикология лексикография словарь “Девони-т-турецкий”, “Сангло”

Yer yuzida yashovchi dunyo xalqlari turli xil tillarda gaplashishadi. Hammasi bólib taxminan 5621 ta til va sheva mavjud bo'lib, hozirgacha ulardan 500tasigina o'rganilgan.

Leksikologiya tilshunoslikning til lug'at tarkibi, ya'ni muayyan bir tilning leksikasini o'rganuvchi bo'lim hisoblanadi. Leksikologiya óz ichiga leksikografiya, frazeologiya, semsiologiya, etimologiya ham sóz yasalishi haqidagi ta'limotlar bilan bog'liq. Biz shularning tarkibida kiruvchi leksikografiya haqida baxs yuritimiz.

Leksikografiya tilshunoslikning lug'at tuzish va u bilan aloqador bo'lgan masalalarni o'rganuvchi bo'lim hisoblanadi. Leksikografiya xalq tilida “lug'atchilik” deb ham yuritiladi.

Lug'at- deb, ma'lum maqsad asosida to'plangan, alohida me'yorlarga tayanib tartibga solingan, asosan sózlar va tushunchalar yig'indisiga aytiladi. Lug'at tuzish uchun esa ma'lum bir maqsad nazarda tutiladi. Maqsad esa davr va ósha davrning ehtiyoji asosida tuziladi. Leksikografiya lug'atlar tipologiyasini ham ishlab chiqadi. U shu jumladan u óz ichiga izohli lug'atlar, ikki tilli (tarjima lug'atlar), o'quv



leksikografiyasi (til o'rganishga mo'ljallangan), ilmiy va texnik leksikografiya (terminologik lug'atlar) va boshqa lug'atlarni o'z ichiga oladi.

Lug'atchilik qadim ming yilliklardan beri rivojlanib kelmoqda, o'zbek lug'atchiligi tarixi ham bir necha ming yillar oldin shakllangan va hozirgi kungachun ham shakllanib kelmoqda.

O'zbek lug'atchiligining shakllanishi XI asrda buyuk bobakalonimiz Mahmud Qoshg'ariyning " Devoni lug'ati-t-turk" asari orqali shakllana boshladi. Mahmud Qoshg'ariy "Devoni lug'atit-t-turk" asarini yozib o'zbek lug'atchiligini boshlab berdi.

"Devoni lug'ati-t-turk" XI asrda Mahmud Qoshg'ariy tomonidan yozilgan turkcha lug'atlardan biri hisoblanadi. Lug'at- taxminan 1100 betdan iborat. Kitob muqaddimasi, turkiy til tasnifi va asosiy lug'atlardan iborat. Lug'at alifbo tartibida tuzilgan va so'zlardan foydalanishning ko'plab misollari bilan 10000 ga yaqin yozuvlarni o'z ichiga oladi. Lug'atning eng muhim mavzularidan biri so'z yasalishi ya'ni mavjud so'zlarning yangi so'z yasash jarayonidir. Shuningdek lug'at turkiy so'zlarning ro'yxatini taqdim etibgina qolmay, turk tilining grammatikasi, va sintaksisning turli jihatlarini ham tadqiq qiladi. Lug'atda faqat alohida berilgan so'zlarning ma'nolari emas balki ularning grammatik shakllanishi, hol qo'shimchalarini, fe'l kelishiklarini ham o'z ichiga oladi. Lug'atda ikki va undan ortiq so'zlarning qo'shilishi natijasida hosil bo'ladigan qo'shma so'zlarning ma'lumotlari haqida ham noyob ma'lumotlar berilgan. Mahmud Qoshg'ariy O'рта Osiyo bo'ylab ko'plab sayohatlar qilgan va shu tariqa turkiy xalqlar tarixi, urf odatlari, geografik joylashuvi ham lug'at tarkibidan o'rin olgan.

Eski o'zbek adabiy tili davri lug'atchiligini grammatika masalalarini o'z ichiga olgan lug'at yaratilganigi ma'lum. "Sangloh" lug'ati shular jumlasidandur. Uning muallifi turkiy xalqlarning afshar urug'idan chiqqan va Asrtobodlik Mirzo Mahdixon. U Eron shohi Nodirshohning kotibi. Mirza Mahdiyxonning lug'at tuzishdan maqsadi qiyin so'zlar ma'nosini forsiyzabon xalqlarga yetkazib berishdir. "Sangloh" ya'ni "toshli yer" "toshloq" degan ma'noni bildiradi. Lug'at 1759-1769 yillarda yozib tugatilgan. Lug'atning tarkibida, "Maboni ul lug'at" (Til asoslari) nomli gramatik ocherki ham o'rin olgan. Lug'atning bu qismida muqaddima va gramatik tavsiflardan iborat. "Sangloh" lug'atning ikkinchi qismi gramatik ocherk, olti bo'limdan iborat. Birinchi bo'lim o'z ichiga 10ta bobni oladi. Unda fe'l va fe'lning shakllari shuningdek, qo'shimchalarning asosga qo'shilishi tartiblari haqida. Lug'atning keyingi bo'limlarida ko'rsatish omoshlari qo'shimchalarning variantlari va ro'yxati berilgan. Bundan tashqari ko'makchili fe'llar, eski o'zbek orfografiyasi tamoyili, so'zlarning imlosi kabi masalalar haqida fikr yuritilgan Hozirgi kunga qadar lug'atning 3 ta nusxasi aniqlangan. Ushbu lug'atning boshqa lug'atlardan farqi shundaki, lug'atda



birinchi marta nasriy asarlardan misollar keltirilgan. Alisher Navoiy asarlarida uchrovchi ko'plab so'zlarning ma'nolarini mahorat bilan ochib berilgan. Misol tariqasida bir qadam tashlash, yurish ma'nosidagi "mangish" so'zini olib qaraganimizda. Bu so'zning ma'nosini Mahdixon quyigachicha izohlaydi: mangish-nun ustida sukun, forsiy "k" (ya'ni "g") kasrali, ma'nosini xirom va raftor qadam tashlamoq, deya ta'riflaydi. Bu so'zlar Navoiyning " Layli va Majnuni" da uchraydi.

Mahdixon lug'atning fonetik tuzilishi haqida quyidagicha fikr yuritadi. Lug'atning ma'lumotlari o'sha davr tilida 9ta unli (ularning 6 tasi fonologik ahamiyatga ega), 28 ta undoah esa tovush bo'lganligi aytiladi.

"Sangloh" lug'atida mog'ul, fors, Arab va boshqa tillardan o'zlashgan 970 ga yaqin leksik birliklar mavjud. Lug'atda muallifning o'zi tomonidan mo'g'ulcha deb belgilangan so'zlar yuzdan oshadi. Hozirgi kunga qadar lug'atning uch nusxasi aniqlangan.

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki , o'zbek lug'atchiligi tarixi uzoq tarix va boy an'anaga ega.

Xullas, o'zbek lug'atchiligi tarixida yaratilgan lug'atlar o'sha davrda yaratilgan buyuk allomalarimizning noyob asarlari haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi asarlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'at-t-turk. 3-bet
2. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'at-t-turk. 15-bet
3. H. Botirov. Javohir xazinalari. -T: "G'afur G'ulom", 1989. 4-bet.
4. H. Botirov. Javohir xazinalari. -T: "G'afur G'ulom", 1989. 33-bet.
5. A. Omonturdiyev, O'. Xoliyorov, G. Qorjovova. Zamonaviy o'zbek leksikografiyasi: Tahlil va tadqiq. Termiz .2016. 22-bet."
6. Umarov Eski o'zbek tili lug'atlari -T. 1992 yil.
7. Nurmanov A. O'zbek tilshunosligi tarixi.
8. w.w.w library.ziyonet.uz.
9. w.w.w lingvi-online.uz.

